

# “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

## QORADARYO HAVZASIDA TARQALGAN TURKISTON QUMBALIG‘I (*GOBIO LEPIDOLAEMUS* KESSLER, 1872) NING MORFOMETRIK O‘ZIGA XOSLIGI

**Komilova Dildoraxon**, Farg‘ona davlat universiteti biologiya fani o‘qituvchisi

E-mail: [dildoraxonkomilova4615@gmail.com](mailto:dildoraxonkomilova4615@gmail.com);

**Annotatsiya:** Turkiston qumbalig‘i Sirdaryo havzasi endemik turi bo‘lib, Qoradaryo havzasida keng tarqalgan. Mazkur maqolada ushbu turning morfologik xususiyatlari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** qumbaliqlar, morfometriya, Farg‘ona vodiysi, chuchuk suv baliqlari.

**Аннотация:** Туркестанский пескарь является эндемичным видом бассейна Сырдарьи и широко распространен в реке Карадарья. В данной статье речь идёт о морфологических особенностях этого вида.

**Ключевые слова:** пескари, морфометрия, Ферганская долина, пресноводные рыбы.

**Abstract:** The Turkestan gudgeon is an endemic species of the Syr Darya basin and is widely distributed in the Kara Darya River. This article discusses the morphological characteristics of this species.

**Key words:** gudgeons, morphometry, Fergana Valley, freshwater fish.

Turkiston qumbalig‘i (*Gobio lepidolaemus* Kessler, 1872) Sirdaryo havzasining endemik turi bo‘lib, bugungi kunda Farg‘ona vodiysining deyarli barcha suv havzalarida keng tarqalgan mahalliy turlardan biri hisoblanadi. Uni Sirdaryoning asosiy o‘zani bilan birgalikda ko‘plab irmoqlarida ham uchratish mumkin. Avvallari mazkur turning Zarafshon hamda Amudaryo havzalarida uchrashi qayd etilgan, biroq o‘tkazilgan molekulyar-genetik tadqiqotlar, yuqoridagi ikki daryo havzasidagi turlarning *Gobio* urug‘ining boshqa vakillari (mos ravishda *G. nigrescens* va *G. sibiricus*) ekanligini ko‘rsatdi [1]. Ushbu turning morfometrik ko‘rsatkichlarini tadqiq etish uning populyatsiyalari hamda ular orasidagi farqlanishni taqqoslash, turning o‘zgaruvchanlik xususiyatlari hamda moslanish ko‘rsatkichlarini o‘rganishda muhim hisoblanadi [2] (1-rasm).

**1-rasm.** Turkiston qumbalig‘i (*Gobio lepidolaemus*). Qoradaryo o‘rta oqimining yuqori qismi.



21.05.2022 (© B.Sheraliyev)

## “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

Quyida Turkiston qumbalig‘ining Qoradaryo daryosida uchrovchi muhim populyatsiyalaridan birining morfometrik ko‘rsatkichlari keltirilgan.

### Qoradaryo suv havzasidan tutilgan *Gobio lepidolaemus* (n=23) ning morfometrik ko‘rsatkichlari

Morfometrik ko‘rsatkichlar	min	max	mean	SD
Umumiy uzunlik	48,72	76,18	57,68	
Standart uzunlik (SL)	39,69	61,87	46,87	
SL ga nisbatan % hisobida				
Bosh uzunligi (HL)	24,71	28,78	26,65	0,92
Tana balandligi	22,89	26,16	24,95	0,89
Tana eni	13,84	18,96	16,53	1,35
Predorsal uzunlik	48,42	51,35	50,19	0,85
Postdorsal uzunlik	38,10	42,83	40,41	1,22
Prepelvik uzunlik	48,70	53,44	50,49	1,12
Preanal uzunlik	68,03	72,43	70,45	1,17
Dorsal suzgich qanot uzunligi	20,17	25,21	22,79	1,15
Anal suzgich qanot uzunligi	15,11	19,38	16,85	1,00
Ko‘krak suzgich qanot uzunligi	14,80	20,10	17,93	1,28
Qorin suzgich qanot uzunligi	13,56	16,76	15,04	0,71
Dum bandi uzunligi (CPL)	20,23	24,22	22,45	1,12
Dum bandi bo‘yi (CPD)	10,27	13,93	12,12	0,78
Ko‘krak-qorin suzgich qanot masofasi	22,12	27,50	24,88	1,39
Qorin-anal suzgich qanot masofasi	17,99	21,70	19,81	1,11
HL ga nisbatan % hisobida				
Bosh balandligi (ensa qismida)	59,10	74,10	68,44	3,16
Boshning maksimal eni	58,49	74,57	66,10	3,36
Tumshuq uzunligi	30,50	43,49	35,59	3,17
Ko‘z diametri	20,31	27,00	23,01	1,66
Interorbital masofa	31,77	40,34	35,97	2,17
Postorbital bosh uzunligi	35,92	44,84	41,04	2,45
Og‘iz eni	23,45	38,31	29,02	3,62
Mo‘ylov uzunligi	22,47	37,46	28,33	4,37
CPL/CPD	1,60	2,09	1,86	0,13

Qoradaryo havzasida uchrovchi Turkiston qumbalig‘i tekshirilgan namunalarning umumiy uzunligi (TL) 4,9–7,6 sm ga, standart uzunligi (SL) esa 4,0–6,2 sm ga yetdi. Bosh uzunligi SL ning 24,71–28,78% iga, predorsal uzunligi esa SL ning 48,42–51,35% iga teng bo‘ldi. Dum bandining uzunligi bosh uzunligidan har doim kichik (SL ning 20,23–24,22% vs. 24,71–28,78%). Dum bandi uzunligining balandligiga nisbati 1,60–2,09 ni, o‘rtacha holatda  $1,86 \pm 0,13$  ni tashkil etdi. Dorsal qanoti qolgan barcha suzgich qanotlardan uzun ekanligi ma’lum bo‘ldi (D  $22,79 \pm 1,15$  vs. P  $17,93 \pm 1,28$ ; V  $15,04 \pm 0,71$ ; A  $16,85 \pm 1,00$ ).

## “BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.*

Interorbital masofa postorbital bosh uzunligiga nisbatan biroz qisqa ekanligi ma'lum bo'ldi (HL ning  $35,97 \pm 2,17\%$  vs.  $41,04 \pm 2,45\%$ ). Olingan natijalar Farg'ona vodiysida tarqalgan Turkiston qumbalig'ining morfometrik ko'rsatkichlarini yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sheraliev B., Allayarov S., Peng Z. First records of *Gobio nigrescens* and *Gobio sibiricus* (Cypriniformes: Gobionidae) from the Amu Darya River basin, Uzbekistan. Journal of Applied Ichthyology, 2020, №36, – P. 235-239.
2. Kottelat M., Freyhof J. Handbook of European freshwater fishes. – Berlin, Germany: Kottelat, Cornol & Freyhof, 2007. – 660.